

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND FILIALI



“OLIMPIYA BILIM ASOSLARI” MODULI

“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi” yo‘nalishi bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim
muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun

O‘qituvchi: A‘zamxonov Oltinxon Ashrafxon o‘g‘li

3-mavzu: O‘zbekistonda Olimpiya harakatining rivojlanishi

Reja:

1. O‘zbekistonda Olimpiya harakatining rivojlanish darvlari.
2. O‘zbekiston sportchilarning xalqaro sport maydonlardagi yutuqlari.





O‘ZBEKISTON MILLIY OLIMPIYA QO‘MITASI BINOSI (TOSHKENT)

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi 1992-yil 21-yanvarda tashkil etilgan. Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasining 1993-yil 17-sentabrda Monakoda bo‘lib o‘tgan 101-sessiyasida O‘zbekiston Milliy Olimpiya Qo‘mitasi Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi tomonidan tan olingan. Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi Olimpiya Xartiyasi asosida jahon sporti harakating ilg‘or tajribalariga tayangan holda Milliy Olimpiya Qo‘mitasining Nizomi ishlab chiqilgan va qabul qilingan.

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi- nodavlat notijorat tashkilot bo‘lib, o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi, Olimpiya Xartiyasi va O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi Ustavi asosida amalga oshiradi.

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi Respublikada jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha bir qator muhim faoliyatlarni bajaradi.

Milliy Olimpiya qo‘mitasining asosiy faoliyatlarini ichki va tashqi faoliyatlariga ajratish mumkin.



O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi — sport va jismoniy madaniyatni rivojlanitirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, Olimpiyadaga oid ta‘lim, Olimpiya qadriyatlari ommalashtirish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash ishlarida ishtrok etadi, sport murabbiylari va sport tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida faoiyat yurituvchi tashkilot.



**O‘ZBEKISTON MILLIY
OLIMPIYA QO‘MITASI**



Milliy Olimpiya qo'mitasining maqsadlari:

- Olimpiya harakati va havaskorlar sportini rivojlantirish:

- Olimpiya xartiyasi asosida mamlakatimizda olimpiyizm tamayillarini himoya qilishga yordam berish:

-Respublikamiz sportchilarining Olimpiya o'yinlarida ishtirok etishini ta'minlash;



O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekistonda Olimpiya xarakatini rivojlantirish, olimpizm g'oyalarini keng targ'ib etish;

- Respublika sport delegatsiyalarining Olimpiada, Osiyo, Butunjahon yoshlar o'yinlarida vakili bo'lish;

-Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Osiyo Olimpiya Kengashi, boshqa mamlakatlar milliy olimpiya qo'mitalari, xalqaro sport federatsiyalari va uyushmalari bilan qalin hamkorlik qilish, XOQning «Olimpiya birdamligi» dasturida ishtirok etish;

- Respublika, aholisini jismoniy va ma'naviy tarbiyalashga, jismoniy tarbiya va sport, ayniqsa, milliy sport turlari, imkoniyati cheklanganlar o'rtasida sportni rivojlantirishga har taraflama ko'maklashish;

- Mamlakat terma jamoalari va sport zaxiralarini tayyorlashda davlat, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga ko'maklashish;

- Yoshlarni boshqa mamlakatlar sportchilari bilan do'stlik va birodarlikni mustahkamlash, musobaqalarda halol sport kurashi olib borish, raqibiga olijanoblik bilan munosabatda bo'lish tamoyillari asosida tarbiyalash;

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasining prezidentlari

MOQ. Prezidentlari	Boshqaruv yillari	Bosh kotib
<u>Obid Nazirov</u>	<u>1992-1994</u>	prof. Xamrakulov Abduxamid Kadirxanovich
<u>Sobirjon Ro‘ziyev</u>	<u>1994-2003</u>	<u>2001-yildan Malik Babaev</u>
<u>Aziz Nosirov</u>	<u>2003-2005</u>	<u>Malik Babaev</u>
<u>Rustam Qurbonov</u>	<u>2005-2009</u>	<u>Malik Babaev</u>
<u>Malik Babaev</u>	<u>2009-2013</u>	Muhammadali Karimov
<u>Mirabror Usmonov</u>	<u>2013-2017</u>	<u>Oybek Kasimov</u>
<u>Alisher Sultonov</u>	<u>2017-2018</u>	<u>Oybek Kasimov</u>
<u>Umid Ahmadjonov</u>	<u>2018-2019</u>	<u>Jasur Matchanov</u>
<u>Rustam Shoabdurahmonov</u>	<u>2019-2022</u>	<u>Oybek Kasimov</u>

Olimpiya shon shuhrat muzeyi

Mamlakatimiz sportining ko'zgusi hisoblangan Olimpiya shon-shuhrati muzeyi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-avgustdagi 284-sonli qarori bilan tashkil etilgan.

Muzeyning tantanali ochilish marosimi 1996-yil 1-sentabrda Toshkentda shahrida tashkil etilgan. Osiyo qit'asida birinchi tashkil qilingan olimpiya muzeyi. Ochilishida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov va Xalqaro Olimpiya qo'mitasining prezidenti Xuan Antonio Samaranch ishtirok etishgan.

Muzeyning vazifasi: olimpiya g'oyalarini targ'ib qilish bilan birga respublikada jismoniy tarbiya, sport, sayohat va xalq milliy o'yinlarini yuksaltirish, shuningdek, O'zbekiston sportchilarining jahon miqyosidagi nufuzini mustahkamlashishiga ko'maklashishdan iborat.



**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT!!!**